

# O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi kimyo sanoat mahsulotlarining 27-sentabr sanasidagi savdo yakunlari

// 27 September 2024 yil

<https://pda.uzkmyosanoat.uz/oz/press/news/birja20240927>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi o'z savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan kimyo mahsulotlari savdosining 2024-yil 27-sentabr sanasidagi yakuni bo'yicha ma'lumotlarni taqdim etadi.

Joriy yilning 27-sentabr kuni "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi ochiq birja savdolari orqali jami 3278,3 tonna 16 860,8 mln so'mlik mineral o'g'itlar

sotildi.

Birja savdolariga tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan ammiakli selitra, karbamid, sulfat ammoniy, ammofos, PS-Agro, kaliyli o'g'itlar, superfosfat azot-fosforli o'g'it kabi mahsulotlar qo'yildi. Savdoga qo'yilgan mineral o'g'itlardan ammofos eng ko'p sotilgan mahsulot bo'lib, sotuvning 55,3 foizini tashkil etdi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" AJ tizimidagi korxonalar tomonidan mineral o'g'itlardan tashqari bugungi kun sanoatida keng qo'llanilayotgan PVX, kaustik soda, formalin, natriy gipoklorid, kalsinatsiyalangan soda, azot kislotasi va suyuq kislorod kabi bir qator kimyo mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ular ham doimiy ravishda birja savdolariga qo'yib boriladi.

27-sentabr kuni jami 8443,6 mln so'mlik boshqa turdag'i kimyo mahsulotlar sotildi. Sotuvning asosiy qismini, ya'ni 64,5 foizini kaltsinatsiyalangan soda mahsuloti tashkil etdi.

O'zbekiston Respublika tovar-xom ashyo birjasidagi "O'zkimyosanoat" AJ savdo maydonchasi orqali tashkilot tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar savdosiga bo'yicha barcha ma'lumotlarni [www.uzkmyosanoat.uz](http://www.uzkmyosanoat.uz) rasmiy veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlardagi <https://t.me/uzkmyosanoat> va <https://www.facebook.com/uzkmyosanoat/> rasmiy sahifalari orqali olishingiz mumkin.

Mahsulotlarni yetkazib berish va ularning sifat darajasi bo'yicha taklif va e'tirozlaringiz bo'lsa, (78) 140-74-48 ishonch telefon raqamiga murojaat qilishingiz mumkin.

### **"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**